



DILSHOD RAJAB HAYOTI VA IJODINI O'QITISH XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Botirova Nigora Nurulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili
va adabiyoti fakulteti 1- kurs magistanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7532961>

ARTICLE INFO

Received: 02nd January 2023

Accepted: 11th January 2023

Online: 12th January 2023

KEY WORDS

Adabiy ta'lim, shoir, ijod, asar,
bolalik, innovatsion metod,
shakl va mazmun, darslik.

ABSTRACT

Bolalar adabiyoti o'zbek adabiyotining tarkibiy qismi sifatida o'tgan asrning so'nggi choragida shakllana boshlagan. Bir asrdan ortiq vaqt mobaynida u o'zining zukko kitobxonlari va iste'dodli ijodkorlariga ega bo'ldi. Shu ma'noda bolalar adabiyoti mustaqil fan, sohasi sifatida rivojlanib bormoqda. Bunda o'qish darslari juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u orqali yosh avlodning jajji qalbida yozuvchi, shoir va adiblarning ijodiga, ularning betakror asarlariga qiziqish, havas va ishtiyoq uyg'otib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish, shaxsiy namuna ko'rsatish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Darslikda berilgan shoirlar, olimlar, zamonamizning atoqli kishilarining asarlari bilan birga, ularning o'z hayotiy faoliyati ham hamma uchun o'rnak bo'larlidir. Zamonlar o'taveradi, lekin xalq qalbini zabt etgan donishmandlar, elim deb, yurtim deb jonini xalq va millat ravnaqi yo'lida fido qilgan insonlar mangu yashaydi. Ularning hayot va ijodlari barchaga namuna. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'limda o'zining alohida o'rniga ega. O'qish darslarining asosida savodxonlik va axloqiy-ta'lim tarbiya turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar to'plamini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yozuvchi va shoirlarning yaratgan asarlarida va amaliy faoliyatida har doim ezgu g'oyalar ilgari surilgan, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Bularni yosh avlodga o'rgatish, ongu shuuriga singdirish, hozirgidek tinch va farovon hayot uchun qilingan zahmatli mehnatlarni unutmazlik, aksincha, ularning qadriga yetish va bundan faxrlanib yashash hissini shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim sharti sanaladi. O'qish darslarini to'g'ri tashkil qilish juda muhim masala hisoblanadi. Chunki aynan shu darslarda o'quvchilar o'qish savodxonligini oshirib borishadi. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishish yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir. Bu asarlarni o'rganish davomida uning mualliflari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishlari zarurdir. Boshlang'ich sinf o'qish darsligida asarlari berilgan mualliflarning hayoti va ijodini o'rganish va o'quvchilarga o'rgatish zarurdir.

1. Adabiy ta'limning asosiy maqsadi hamda vazifalarini belgilash.



2. O'qish darsliklarining shakl va mazmuniga ko'ra tasnif etish va tahlilga tortish.
3. O'qish darsligida asarlari kiritilgan mualliflar ro'yxatini tuzish.
4. Asarlarning mualliflari hayoti va ijodiga oid materiallarni to'plash.
5. Mualliflarning ijodini o'rganish.
6. Adiblar hayoti va ijodini o'qitishda innovatsion metodni ishlab chiqish.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bolalar adabiyotini rivojlantirish va o'rganish juda qiziqarli va murakkab jarayondir. Bu sohada qator muammolar mavjuddir. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish omillari haqida gap ketganda, o'z kasbining ustasi bo'lgan yetuk kadrlar bilan bir qatorda o'qituvchining ta'lim berishi, o'quvchining esa o'quv materialini tez va to'liq o'zlashtirishiga yordam beruvchi o'qitish vositasi – darsliklarga ham yetarlicha ehtiyojimiz borligi hech kimga sir emas! Bugungi kun talablariga to'liq javob bera oladigan va farzandlarimizning sifatli ta'lim olishlari uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladigan darsliklar yaratish muammosi shu sohada faoliyat yuritayotgan har bir fidoyi, jonkuyar o'qituvchilarimizning kunda yuz bor o'ziga beradigan, eng ko'p o'ylantiradigan savoli bo'lishi tabiiy. Chunki o'qish darsliklarimizga kiritilgan asarlarni mualliflari haqida deyarli ma'lumotlar berilmagan. Dars o'tish jarayonida esa asar muallifi haqida ma'lumot berish kerak. Bolalar adiblari ijodini o'rganish bo'yicha DTS va o'qish kitoblarining o'zaro mos kelmaslik holatlari ko'zga tashlanadi. Bunda o'qituvchilar uchun dars o'tish jarayonida qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, dars o'tish jarayonini chegaralangandek bo'lib qolmoqda. 3-sinf o'qish darslarida bolalar adiblari Zahro Hasanova va Dilshod Rajab ijodi va asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilar uchun zarur bo'lgan manbalarning yo'qligi, biroq ular asar mualliflari ijodi va asarlariga juda qiziqishlari ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham yangi adabiyotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. O'qish darsligiga kiritilgan asarlarni tanlab olishda asosan asarning bo'limga mos tushishi ahamyatlidir. Uning muallifi ahmiyatsiz bo'lib, asar muhim hisoblanadi. Bunday davom etsa kelajakda o'quvchilarimiz bolalar adiblarini bilmay, tanimay qoladilar. O'qish darslarida didaktik o'yinlar orqali adiblar hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berib borilishi o'quvchilarning adabiyot olamiga, kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Qalbida adabiyotga muhabbati bor avlodni buyuk kelajak kutadi.

Dilshod Rajab 1964-yilning 7-dekabrida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyoli oilasida tug'ildi. 1982-yil Navoiy nomidagi 4-o'rta maktabni oltin medal bilan bitirib, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet)ning o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. 1983–1985-yillar harbiy xizmatda bo'lib qaytgach, tahsilni davom ettirdi. 1989-yil oliy dargoh tahsilini tugatib, o'zi o'qigan 4-o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishladi. 1990–1993 yillar Nizomiy nomidagi TDPI aspiranturasida o'qib, "80-yillar o'zbek bolalar she'riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari" mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi.

Dilshod Rajab O'zbekiston Davlat matbuot qo'mitasida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyatida, Respublika "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasida turli lavozimlarda ishladi (1994–2004). 2005-yildan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining "Muhofaza+" jurnali, "Vaziyat" gazetasi birlashgan tahririyatida bosh muharrir sifatida faoliyat yuritadi.



Ilk she'ri "Gulxan" jurnalida 1978 yilda bosildi, "Qorqiz sovg'a keltirdi" nomli ilk kitobi esa hammualliflikda 1989 yilda nashr etildi. Shundan so'ng, shoirning "Otamning bog'i" (1996), "Daryo ko'ngil" (1997), "Jilvon o'g'loni", "Alifbo" (2001), "Tanish tovushlar" (2006), "Sukut sarhadi" (2006), "O'n o'rtoq", "Hamro polvon" (2011), "Poyezdning bolasi" (2013), "Baxshi bola – yaxshi bola" (2016) kabi bolalarga bag'ishlangan kitoblari dunyoga keldi.

Dilshod Rajab, shuningdek, davriy matbuotda o'zining ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik maqolalari bilan ham muntazam qatnashib keladi. U ayni paytda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashi a'zosi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

Dilshod Rajab Jurnalistika sohasida VI "Oltin qalam" Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov sovrindori hamdir. (2011 yil).

Dilshod Rajab, shuningdek, davriy matbuotda o'zining ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik maqolalari bilan ham muntazam qatnashib keladi. U ayni paytda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashi a'zosi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Dilshod Rajab o'zbek tili rivojiga munosib hissa qo'shgan adiblar, jumladan, Zulfiya, Izzat Sulton, Turob To'la, Hakim Nazir, Shukrullo, Shuhrat, Mirmuhsin, Po'lat Mo'min kabi elimiz suygan shoiru yozuvchilarning Nizomiy nomidagi TDPU bitiruvchilari ekaniga, yoshlarimiz ham shu insonlar kabi tilimizning, adabiyot va ma'naviyatimizning buloqlari bo'lishi lozimligiga alohida urg'u berib, kuyunchaklik bilan so'zlad. Ayniqsa universitetning yuqoridagi buyuk bitiruvchilari hayotiga oid qiziqarli hikoyalar, ibratli namunalar tadbir ishtirokchilarida alohida hissiyot uyg'otadi.

Boshlang'ich ta'limni sifatli berish o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan ayniqsa, ona tili fanini o'qtish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv-bilim jarayoni samaradorligi asosan o'quv predmeti mazmunining ta'lim maqsadiga muvofiq holda tanlaganligiga bo'g'liq. Shuning uchun xam o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv yuklamasini ularning ehtiyoj va imkoniyatlariga mos tarzda belgilangash lozim. Ona tili ta'limning o'qituvchalarga taqdim mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishi ularda mulohaza yuritish, o'zgaralar fikrini anglash, ijodiy salohiyatlarini namoyon qilish va faolashtirish, o'z fikrlarini o'g'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat azolari bilan erkin muloqatda bo'la olishi ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga hizmat qilishi lozim. O'quvchilarning o'z ijodiy salohiyatini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish maqsadida quydagi usulardan foydalanishi mumkin suhbatlari, munozara daqiqalari tashkil qilish, ijodiy ishlar yozdirish, ularni muloqat va hozirjavoblikka chorlovchi didaktiv o'yinlarni tashkil etish, topqirlikka (chorlovchi) undovchi savol-javoblar o'tkazish, so'zlarni sinonimlari bilan almashtirish, so'zliklar tuzdirish qay usulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek har bir o'quvchilarning individual xususiyatlarini xisobga olgan holda ularni mustaqil taqdiqotlik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

Zamonoviy ta'lim yo'nalishlarini o'z ichida aks ettirgan yana bir shakl – o'yinli texnologiyalardir. O'yin bolalarning shaxsiy xulq – atvoriga tashqi kuzatuvchi, xarakterlantiruvchi kuch sifatida ta'sir ko'rsatib, o'yin usullari yordamida olib borilgan mashg'ulotlar bolalarga boshlang'ich ta'lim metodikasi fanini o'zlashtirish bilan birgalikda kasbiy mehnatning mazmunini ochib borishga yordam beradi. O'yinning asosiy



harakatlantiruvchi kuchi sifatida insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatlarini sanab o'tish mumkin. O'quvchilar yordamida muallif bilan birgalikda quyidagi o'yin tiplari ishlab chiqiladi: - predmetli - tasviriy o'yinlar; - borliq haqidagi tushunchalarni kengaytirishga mo'ljallangan o'yinlar; - badiiy o'yinlar; - ijodiy o'yinlar. Tavsiya qilinayotgan o'yin texnologiyalarning yangiligi ularning badiiy - timsoli xususiyatga egaligi, unda grafikaviy faoliyatning integratsiyalashuvi, dars jarayonining emotsional mazmuniga eng bo'lish, ijodiy hamkorlik uchun zamin yaratish, o'zaro munosabatlar kabi omillarga asoslanganligidir. Tajriba davomida bolalar bilan o'tkazilgan savol - javoblari natijalaring yaxshilashga, talablar, yangiliklarga qiziqish bilan qaraydilar va ularning samaradorligiga ishonadilar. Pedagogik amaliyot jarayonida o'qituvchilar bilim mahorati namunalarini, faollik, ijobiy motivatsiya va bolalar bilan ishlashga layoqatli ekanlarini ko'rsatadi.

References:

1. Dilshod Rajab hayoti va ijodi. Dilshod Rajab she'rlari to'plami <https://ilmlar.uz/dilshod-rajab-hayoti-va-ijodi/>
2. Dilshod Rajab (1964) <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/dilshod-rajab-1964>
3. Dilshod Rajab hayoti, faoliyati, asarlari, mukofotlari <https://baxtiyor.uz/dilshod-rajab-haqida-ma-lumot/>
4. Dilshod Rajab tarjimai holi, Faoliyati Kitoblari, She'rlari <https://mbaza.uz/tarjimai-hol/dilshod-rajab/>
5. Dilshod Rajab haqida batafsil ma'lumotlar, tarjimai hol <https://sirlar.uz/dilshod-rajab-1964-haqida-batafsil-ma-lumotlar-tarjimai-hol/>